FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
16 (35)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2026-yil
16 (35)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 15.09.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo‘ronov
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo‘minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Charos Yoqubova. "Zumrad va qimmat" ertagining adaptatsion transformatsiyasida an'ana va zamonaviylik 4
Elyor Mustafayev. Qiyosiy tahlil: ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning semantik munosabatlari 7
Gulshod Shoyimova. "Otamdan qolgan dalalar" romanida dehqon obrazi: milliy ruhiyat va fojia tasviri 10
Nodira Sanoyeva. O'zbek bolalar hikoyalarida milliy odob me'yorlarini ifodalovchi lingvokulturemalar 12
Dilorom Hayitboyeva. Ubaydiy ruboiylarining vazn va qofiya tizimi 14
Nargiza Ergasheva. Ingliz va o'zbek maqollarida stereotiplarning manipulyativ - pragmatik salohiyati 16
Gulnoza Egamberdiyeva. O'zbek va ingliz hikoyalarida ayol obrazining psixologik talqini 19
Mexri Norova. Common Aspects of White Color Symbol in Modern English and Uzbek Poetry 21
Muborak Qudratova. Hozirgi zamon o'zbek she`riyatida askar mahkam ijodi 23
Shoira Axmedova. Adabiy suhbatlarda shoir qiyofasi 25
Muxlisa Tursunova. Julian Barnsning "Floberning to'tiqushi" metaromanida intertekstuallik 27
Nizomiddin Rajabov. Dubletlarning til tizimidagi o'rni va xususiyatlari 29
Darmonjon Sadullayeva. Shermuhmmad Munis she'riyatida talmeh san'ati (Xizr obrazi talqinida) 31
Sharofiddin Raxmatullayev. Buxoro viloyati gidronimlari lingvokulturologiyasi 33
Гулчехра Махмадиева. Взаимосвязь художественного пейзажа и пафоса в узбекском рассказе 35
Саодат Мирзаева. Роль цитат и литературных реминисценций в произведениях В.В.Набокова 38
Индира Наркулова. Семантическая деградация как лингвистический феномен в условиях генеративного искусственного интеллекта 40
Умида Хабибуллаева. Эвфемизмы как средство этико-риторической организации речи 43
Фахриддин Абдурахманов. Русский язык в языковом пространстве современного узбекистана 47
Рано Батырова. Символика вещного мира в романе Наринэ Абгарян «С неба упали три яблока»: от бытовой детали к культурной памяти» 50
Малика Вахабова. Фразеологическая репрезентация концепта «мать» в корейском языке 52
Iroda Usmonova. "Xamsa"ning temuriylashuvi: ijodiy taqlid, madaniy o'zlashtirish va siyosiy-estetik qayta kodlash 55
Наргиза Заирова. Концепция «Identity» в литературоведении и её художественная **реализация в произведениях Н.**С.Момадзя И Т.Кайыпбергенова 57
Olimjon Jumaboev. Yetti ramzi: mifologik va zamonaviy hikoyachilik kodi 60
Sabohat Anvarova. O'zbek va ingliz paremiologiyasida er va xotin obrazlarining ifoda xususiyatlari (o'zbek va ingliz xalq maqollari misolida) 63
Humoyun Homidov. Qo'rquv motivining mif va afsonalardagi ildizlari 65
Shahnoza Majidova. Surxondaryo viloyati oykonimlarining konversiya usulida yasalishi 67
Gavkhar Usmonova. Kazuo ishiguro romanlarida xotira makonlari: retrospektiv narratsiya va identitetning badiiy qurilishi 69
Iroda Xaydarova. Nutq birliklari derivatsiyasida morfemalarning sintaktik xususiyatlari va strukturaviy munosabatlari 72
Asila Vahobova. "Ma'suma" romanida ayol ruhiyatining badiiy talqini 75
Gulira'no Rakhmanova, Sevara Jumanova. Functional Features of Metapragmatic Units in English and Uzbek 77
Dilnoza Turgunboeva. English Phraseological Units Expressing Quantity: Semantic and Linguocultural Features 79
Gulira'no Rakhmanova, Sevara Jumanova. Functional Features of Metapragmatic Units in English and Uzbek 82
Xaydar Xamdamov. O'zbek badiiy matnida "og'ir", "qattiq" va "chuqur" leksemalarining kollokatsion kengayishi va semantik prosodiyasi 84
Guljahon Tursunpo'latova. Alisher Navoiy "Xamsa"sida ona va ayol timsolining ma'naviy-estetik konsepsiyasi 86
Sohiba Arzikulova. Hamza dramaturgiyasidagi ayol obrazlar tahlili (Maysara va Jamila obrazlari qiyosi misolida) 89
Umida Kabulova. Superfrazali turg'un birliklarni elektron lug'atlarda kodlashtirish 91
Muhabbat Tolibova. Nazar Eshonqul nasrida lingvomadaniy birliklar va ramziy konseptlarning diskursiv tahlili 93
Rajabboy Mattiyev, Mirkamol Ismailov. Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" asaridagi ayrim umumeroniy o'zlashmalar haqida 95
Shaxnoza Nuriddinova. Tibbiy eponimlarda uchraydigan muammolar 97
Nigora Rasulova. "Nozik" mulamma'-muxammasi: janr, til va badiiyat tahlili 99
Nigora Qudratova. Shoira Shams ijodida lafziy san'atlar istifodasi 101
Husnida Tojiboyeva. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida sintaktik parallelizmning lingvopoetik xususiyatlari 104

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Akmal Yoqubov. Ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda raqamli transformatsiyaning o'rni 106
Laylo Mirzoxidova. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda 5E modelining ahamiyati 110
Ulug'bek Xo'jaqulov. Kolaborativ texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish 112
Diloram Fattakhova. Means of Speech Expression of the Uzbek Language and their Teaching in Russian Groups 114
Гулчехра Жабборова. Диалог с эпохой: методика анализа поэзии серебряного века в контексте языкового и духовно-нравственного развития школьников 117
Лола Туйлиева. Глаголы биологического состояния в текстах научного стиля: методика изучения русского языка как неродного 119
Райхон Аллаева. Моделирование как средство объяснения нового материала на уроках русского языка 121
Дилрабо Бабаева. Инновационные методы преподавания русского языка 124
Савлат Гафурова. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку студентов высших учебных заведений 126
Замира Вафаева. Современные исследования использования художественного текста в обучении русскому языку 128
Nodir Ahmedov. Sharq mutafakkirlari pedagogik merosida axloqiy tarbiya g'oyalari va ularning tarix ta'limida qo'llanishi 130
Sevar Akhmedova. Modern Problems of Learning English 133
Abror Yuldoshev. Chet tili ta'limida milliy-madaniy yondashuv asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish 135
Feruza Zulxaydarova. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishning umumdidaktik tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari 137
Muhayyo Shodmonova. A Decade of Research on the Development Ofcommunicative Competence in English Language Teaching: a Bibliometric Analysis 140
Lobar Fayzullayeva. Bo'lajak kadastr muhandislarining geoaxborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish: pedagogik shart-sharoitlar va ilg'or xorijiy tajriba tahlili 145
Ulug'bek Xo'jaqulov. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 147

Elyor MUSTAFAYEV,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

QIYOSIY TAHLIL: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik munosabatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarda sinonimiya, antonimiya, polisemiya va omonimiya hodisalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari fe'l frazeologik birliklar misolida ochib beriladi. Tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillarida frazeologik semantik munosabatlarning umumiy qonuniyatlari mavjudligi, shu bilan birga, ularning obrazli asoslari, konnotativ xususiyatlari va nutqiy realizatsiyasida tilga xos farqlar yuzaga chiqishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, semantika, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik polisemiya, frazeologik omonimiya, semantik munosabat.

Annotation. This article provides a comparative analysis of the semantic relations of phraseological units in English and Uzbek. The phenomena of synonymy, antonymy, polysemy and homonymy in phraseological units and their specific features are revealed on the example of verbal phraseological units. As a result of the analysis, it is revealed that there are common patterns of phraseological semantic relations in English and Uzbek, as well as linguistic differences in their figurative foundations, connotative features and speech realization.

Keywords: phraseological unit, semantics, phraseological synonymy, phraseological antonymy, phraseological polysemy, phraseological homonymy, semantic relationship.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ семантических отношений фразеологических единиц в английском и узбекском языках. Явления синонимии, антонимии, полисемии и омонимии во фразеологических единицах и их особенности раскрываются на примере глагольных фразеологических единиц. В результате анализа установлено, что в английском и узбекском языках существуют общие закономерности фразеологических семантических отношений, а также выявляются языковые различия в их образных основах, коннотативных особенностях и речевой реализации.

Ключевые слова: фразеологическая единица, семантика, фразеологическая синонимия, фразеологическая антонимия, фразеологическая полисемия, фразеологическая омонимия, семантическое отношение.

Frazeologik birliklar semantik jihatdan murakkab va kommunikativ jihatdan faol leksik birlik hisoblanib, ular nutqqa tayyor holda kirishi, voqelikni obrazli ifodalashi, emotsional-ekspressiv mazmunni kuchaytirish xususiyati bilan ajralib turadi. Adabiyotlarda frazeologik birliklarni nomlashda turli terminlarni uchratish mumkin. Masalan, *frazema, turg'un konstruksiya, barqaror birikma, ibora* shular jumlasidan.

Frazeologizmlarning semantik tuzilishi uni tashkil etuvchi komponentlarning alohida lug'aviy ma'nolaridan kelib chiqmaydi, balki yaxlit holda ma'no ifodalaydi. Fe'l frazeologik birliklarda fe'l asosiy ma'no yukini ko'taradi. Odatda frazeologik birliklar metaforik yoki metonimik munosabat orqali shakllanadi va yangi ma'no kasb etadi. Shu xususiyat frazeologik tizimda sinonimiya, antonimiya, polisemiya va ayrim hollarda omonimiya kabi semantik munosabatlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning semantik munosabatlari Sh. Rahmatullayev tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Uning *"O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"* o'zbek frazemalarining ma'nosi, variantlari va qo'llanish xususiyatlarini aniqlash uchun muhim leksikografik manbalardan biri hisoblanadi [1].

Ingliz tilshunosligida esa frazeologiya masalasi A.P.Cowie, Ch.Fernando, R.Moon kabi olimlar tomonidan struktur, semantik, funksional va korpus yondashuvlari asosida o'rganilgan. A.P.Cowie tahriridagi *"Phraseology: Theory, Analysis, and Applications"* asarida frazeologiya mustaqil nazariy va amaliy tadqiqot sohasi sifatida tavsiflanib, turg'un birikmalarning tipologiyasi, korpusdagi qo'llanishi va stilistik imkoniyatlari yoritiladi [2].

Ch.Fernando idiomalarni funksional nuqtayi nazardan tadqiq etib, ularning voqelikni ifodalash, shaxs va vaziyatni baholash, konflikt yoki hamjihatlikni yuzaga chiqarishdagi roliga e'tibor qaratadi [3: 72–74].

R.Moonning korpusga asoslangan tadqiqoti esa frazeologik birliklarning qat'iy qotib qolgan shakllar emasligini, ularning real nutqda variantlashishi va kontekstga asoslanib o'zgarishi mumkinligini ko'rsatdi. Uning fikricha, frazeologik birliklarni tahlil qilishda ularning matndagi real qo'llanishi va diskursiv funksiyasini hisobga olish zarur [4].

Frazeologik birliklarning semantik munosabatlarini ochib berishda semantik-qiyosiy tahlil va kontekstual yondashuvlardan foydalanildi.

Frazeologik birliklarda sinonimik munosabat

Frazeologik sinonimiya ikki yoki undan ortiq frazeologik birlikning umumiy semantik yadro atrofida birlashishi bilan xarakterlanadi. Biroq frazeologik sinonimlarni mutlaq teng ma'noli birliklar sifatida tushunish maqsadga muvofiq emas. Ular umumiy denotativ mazmunga ega bo'lishi bilan bir qatorda intensivlik, baholash, emotsional bo'yoq, uslubiy xususiyat yoki obrazli asos jihatidan farqlanishi mumkin.

Sh.Rahmatullayevning ta'kidlashicha: "Frazosinonimlar nutqiy xoslanish jihatidan rang-barang emas, asosan so'zlashuv nutqiga, qisman boshqa nutq ko'rinishlariga xoslangan. Masalan, ko'z(i)ni yum-, dun/yodan o't- frazemalari adabiy nutqqa (ko'tarinki nutqqa), shularning sinonimi jon ber- frazemasi esa so'zlashuv nutqiga xoslangan" [5: 440].

O'zbek tilidagi *yer bilan yakson qilmoq* va *kulini ko'kka sovurmoq* birliklari "butunlay yo'q qilmoq, vayron etmoq" umumiy ma'noni ifodalashi asosida sinonimik munosabat hosil qiladi. Biroq ularning obrazli strukturasi bir xil emas. Birinchi birlikda obyektning yer bilan tenglashtirilishi orqali yo'q qilishning yakuniy darajasi ifodalansa, ikkinchi birlikda obyektning kulga aylanishi va kulning havoga sochilishi orqali to'liq yo'qotish obrazi yaratiladi. Shu bois umumiy denotativ natija yaqin bo'lsa-da, ikkinchi birlikning ekspressivligi va obrazlilik darajasi bir-biridan farq qiladi.

Ingliz tilida ham bir emotsional holat bir nechta frazeologik birlik vositasida ifodalanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *be over the moon* va *be on cloud nine* fe'lli frazeologik birliklari yuqori darajadagi xursandchilik va emotsional ko'tarinkilik holatini ifodalaydi. Cambridge Dictionaryning "Feeling pleasure and happiness" semantik guruhida mazkur birliklarning bir konseptual-semantik maydonga mansubligi qayd etilgan [6]. Bu ikki birlikning denotativ mazmuni o'xshash bo'lsa-da, obrazli strukturalari farqlanadi:**"be over the moon"**

birligida ijobiy emotsional holat "oy" orqali obrazlashtirilsa, "be on cloud nine" iborasida esa xursandchilikning eng yuqori cho'qqisi "bulut" obrazi vositasida konseptuallashtiriladi. Har ikkala frazeologizmda ham ijobiy emotsiya fazoviy yuqorilik orqali konseptuallashtiriladi. Demak, sinonimik munosabat semantik umumiylik bilan bir qatorda turli yoki yaqin konseptual obrazlarning mavjudligi asosida ham yuzaga keladi. Ta'kidlash lozimki, frazeologik sinonimiyani aniqlashda yana bir muhim jihat bor. Bunda sinonimik birlik bilan bir frazeologizmning variantini farqlash zarur. Variantlarda asosiy obraz va frazeologik ma'no saqlanadi, faqat ayrim komponentlar yoki grammatik shakllar o'zgaradi xolos. Sinonimlarda esa umumiy ma'no boshqa leksik-obrazli strukturalar orqali ifodalanishi mumkin. Shu sababli qiyosiy frazeologiyada formal o'xshashlikdan ko'ra semantik yadro va obrazli asosni birgalikda tekshirish zarur.

Frazeologik birliklarda antonimik munosabat

Frazeologik antonimiya qarama-qarshi semantik mazmunga ega frazeologik birliklar o'rtasidagi munosabatdir. Frazeologik antonimiyada qarama-qarshilik ayrim komponentlarning leksik antonimligi orqali ham, butun frazeologizmning yaxlit ma'nosi orqali ham yuzaga kelishi mumkin. O'zbek tilidagi *yerga urmoq* va *ko'kka ko'tarmoq* bunga yorqin misol bo'la oladi. Birinchi birlik "kamsitmoq, qadrsizlantirmoq, yomon baholamoq", ikkinchisi esa "juda maqtamoq, yuqori baholamoq" ma'nolarini ifodalaydi. Mazkur iboralarda qarama-qarshilik fazoviy **YUQORI – PAST** oppozitsiyasi orqali hosil qilingan. Shunday qilib, antonimik munosabat faqat lug'aviy qarama-qarshilik emas, balki frazeologizmlarni tashkil qiluvchi konseptual sxemalar darajasida ham namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida *keep your cool* va *lose your temper* birliklari semantik jihatdan antonimik munosabatga kirishadi. *Keep your cool* "xotirjamlikni saqlamoq" ma'nosini bersa, *lose your temper* "qattiq jahli chiqmoq" mazmunini anglatadi. Cambridge Dictionaryda birinchi birlik "remain calm", ikkinchi birlik esa "suddenly become angry" tarzida izohlanadi.

Demak, ingliz va o'zbek frazeologiyasida antonimik munosabatlar ko'pincha insonning jismoniy, fazoviy yoki psixologik tajribalarining qarama-qarshi modellariga tayanadi. Frazeologik antonimiyani tahlil qilish polisemiya masalasida ham muhim. Agar ko'p ma'noli birlikning faqat bir ma'nosi muayyan frazeologizmga qarama-qarshi bo'lsa, antonimik munosabat butun birliklar o'rtasida emas, aynan konkret frazeologik ma'nolar o'rtasida aniqlanishi kerak. Shu jihatdan frazeologik antonimiya leksik antonimiyaga nisbatan kontekstga va konkret sememaga ko'proq bog'liq hodisadir.

Frazeologik polisemiya

Frazeologiyada frazeologik polisemiya bitta frazeologik shaklning o'zaro semantik bog'langan ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalashi bilan belgilanadi. Frazeologik birlik dastlab muayyan obraz asosida shakllanib, keyingi qo'llanish jarayonida uning ma'nosi kengayishi, abstraktlashishi yoki yangi kommunikativ vaziyatlarga moslashishi mumkin. Biroq bunda frazeologik polisemiya bilan erkin birikmaning ko'chma qo'llanishini farqlash muhim. Masalan, *qo'l ko'tarmoq* shakli kontekstga qarab "qo'lni yuqoriga ko'tarmoq", "ovoz berish uchun qo'l ko'tarmoq" yoki ayrim holatlarda "urmoq (jismoniy kuch ishlatish ma'nosida)" kabi mazmunlarda kelishi mumkin. Bu ma'nolarning qaysi biri erkin yoki frazeologik ekanini aniqlashda shaklning turg'unligi, semantik yaxlitligi va kontekstual takrorlanishiga e'tibor berish zarur.

2021-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida frazeologik polisemiya to'g'risida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Polisemantik frazemalarda keyingi (hosila) ma'nolar ko'pincha ularning oldingi (birinchi, ikkinchi va h.k.) ma'nolaridan o'sib chiqqan bo'ladi. Masalan, belini bog'lamoq frazemasi uch ma'noli bo'lib, uning birinchisi – "shaylanmoq, otlanmoq"; ikkinchisi – "astoydil kirishmoq"; uchinchisi – "ahd qilmoq"dir. Bu ma'nolarning ikkinchisi birinchisidan, uchinchisi ikkinchisidan o'sib chiqqan" [7: 162–163].

O'zbek frazeologiyasida ko'p ma'nolilikning sinonimik va antonimik munosabatlarga ham ta'siri kuzatiladi. Masalan, bir polisemantik birlikning faqat muayyan ma'nosi boshqa frazeologizm bilan sinonimik yoki antonimik aloqaga kirishishi mumkin. Bu esa frazeologik birlikni emas, balki uning **konkret sememasini** qiyoslash metodologik jihatdan to'g'ri ekanini ko'rsatadi. Masalan, "bosh ko'tarmoq" frazeologik birligi polisemantik bo'lib, turli kontekstlarda turlicha sememalarni ifodalaydi:

- "Qarshilik ko'rsatmoq, bo'ysunmaslik, isyon qilmoq" sememasi. Shu ma'noda *bosh ko'tarmoq – qarshilik ko'rsatmoq, oyoqqa turmoq* kabi birliklar bilan yaqin sinonimik munosabatga kirishadi. Antonimik jihatdan esa bosh egmoq – "bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq" bilan qarama-qarshi qo'yilishi mumkin:

bosh ko'tarmoq ↔ bosh egmoq; qarshilik ko'rsatmoq ↔ bo'ysunmoq

- "Kasallikdan tuzalmoq, o'zini tiklamoq" sememasi: *U og'ir kasallikdan keyin asta-sekin bosh ko'tardi*. Bu kontekstda bosh ko'tarmoq "isyon qilmoq" ma'nosini emas, *o'zini tiklamoq / oyoqqa turmoq* ma'nosini anglatadi. Shuning uchun bu semema "bosh egmoq" bilan antonimik munosabatga kirmaydi.

Demak, "bosh ko'tarmoq" frazeologizmining o'zi to'liq holda "bosh egmoq"ning antonimi emas. Faqat uning "qarshilik ko'rsatmoq, bo'ysunmaslik" sememasi bosh egmoqning "bo'ysunmoq" sememasi bilan antonimik munosabat hosil qiladi.

R.Moonning korpus tadqiqotlari ham ingliz frazeologiyasida shakl va qo'llanishning mutlaq qat'iy emasligini ko'rsatadi. Uning fikricha, ko'plab turg'un ifodalar leksik variantlarga ega bo'lib, bu frazeologik birliklarning kontekstual moslashuvchanligini tasdiqlaydi [4]. Shu sababli polisemiya tilning frazeologik boyish mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi mumkin: mavjud obraz yangi vaziyatga proyeksiya qilinadi, natijada dastlabki ma'no bilan semantik aloqaga ega yangi ma'no shakllanadi.

Frazeologik omonimiya

Frazeologik omonimiya tashqi shakli bir xil yoki juda yaqin, ammo semantik jihatdan mustaqil frazeologik birliklarning mavjudligini anglatadi. **O'zbek tilida f**razeologik omonimiyaning ikki ko'rinishi mavjud bo'lib, ularning birida shakldosh iboralar tarkibida leksik omonim (shakldosh so'z) bo'ladi: *dam bermoq (havo haydash) – dam bermoq (hordiq uchun ruxsat); o'ng kelmoq (to'g'ri kelmoq, qulay kelmoq) – o'ng kelmoq (tushidagisini hayotida ham ko'rmoq).*

Ikkinchi ko'rinishida shakldosh iboralar bir xil lug'aviy birliklardan tuzilgan bo'ladi*: boshiga ko'tarmoq (qattiq shovqin solmoq) – boshiga ko'tarmoq (ortiq darajada hurmat qilmoq;*

Frazeologik polisemiya va omonimiyani ajratishda eng muhim mezon – ma'nolar o'rtasida semantik rivojlanish zanjirining mavjud yoki mavjud emasligidir. Agar bir nechta ma'no yagona konseptual obrazdan rivojlangan bo'lsa, ularni polisemantik munosabat sifatida talqin qilish mumkin. Agar shakl bir xil bo'lsa-da, birliklarning obrazli motivatsiyasi va semantik manbasi boshqa-boshqa bo'lsa, omonimiya yuzaga keladi. Masalan, *ichagi uzildi* iborasini olaylik. Ushbu birlik bir holatda nihoyatda qattiq kulish natijasida "ichagi uzilgudek bo'lish" obraziga, ikkinchi talqinda esa uzoq muddat ovqatlanmaslik oqibatida ichakning torayishi bilan bog'liq

boshqa obrazga tayangan holda izohlanadi. Mazkur holat frazeologik birliklarning shakliy tengligi ularning semantik tengligi degani emasligini ko'rsatadi.

Frazeologik omonimiyani aniqlashda aynan **obrazli motivatsiya** asosiy mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki so'z-komponentlarning tashqi tarkibi bir xil bo'lsa-da, lekin ma'no hosil qiluvchi mental tasvirlar boshqa-boshqa bo'lishi mumkin. Ingliz tilshunosligida frazeologik birliklar masalasi ko'proq idiomatiklik darajasi, shakliy variantlashuv, kontekstual ma'no va diskursiv funksiya doirasida tavsiflanadi. Ch.Fernando idiomatik birliklarning ma'nosi va funksiyasi ularning nutqiy qo'llanishidan ajratib bo'lmasligini ta'kidlaydi [3]. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik omonimiyani aniqlashda real kontekst va obrazli motivatsiyaga tayanish ishonchliroq natija beradi.

Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek frazeologiyasida semantik munosabatlar bir qator umumiy qonuniyatlarga asoslanishini ko'rsatadi.

Birinchidan, ikki tilda ham frazeologik sinonimiya **umumiy semantik yadro + turli ma'no qirralari** modeli asosida shakllanadi. Sinonim birliklar bir xil nominativ vazifani bajarsa-da, ularning intensivligi, emotsional bo'yoqdorligi hamda obrazli motivatsiyasi farq qilishi mumkin.

Ikkinchidan, frazeologik antonimiya ikki tilda ham faqat komponentlarning lug'aviy qarama-qarshiligiga bog'liq emas. *Yerga urmoq – ko'kka ko'tarmoq* kabi o'zbekcha birliklarda vertikal fazo aksiologik qarama-qarshilikni ifodalasa, inglizcha *keep your cool – lose your temper* birliklarida hissiy nazoratning saqlanishi va yo'qolishi qarama-qarshi psixologik modelni hosil qiladi.

Uchinchidan, polisemiya har ikki til frazeologiyasining semantik taraqqiyot mexanizmlaridan biridir. Bir obraz yangi kommunikativ va diskursiv vaziyatlarga ko'chishi natijasida frazeologik ma'no kengayishi mumkin. Shunday ekan, polisemantik birliklarni qiyoslashda har bir ma'noni alohida semema sifatida ko'rib chiqish zarur.

To'rtinchidan, omonimiya polisemiya bilan shakliy jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularda semantik munosabat turlicha bo'ladi. Polisemiyada ma'nolar o'rtasida tarixiy yoki konseptual bog'lanish mavjud; omonimiyada esa umumiy shakl ostida mustaqil obraz va ma'no tuzilmalari mavjud bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning semantik munosabatlari (sinonimiya, antonimiya, polisemiya va omonimiya) ularning boy imkoniyatlarini namoyon etadi. Xususan, sinonimiya tahlili birliklarning umumiy semantik yadroga egaligi bilan birga, intensivlik va obrazlilik jihatidan farqlanishini ko'rsatdi (masalan, o'zbekcha yer bilan yakson qilmoq – kulini ko'kka sovurmoq, inglizcha be over the moon – be on cloud nine). Antonimiya esa qarama-qarshi ma'nolar ko'pincha chuqur kognitiv oppozitsiyalarga tayanishini tasdiqlaydi.

Frazeologik tizimning semantik taraqqiyotini ko'rsatuvchi polisemiyada ma'nolar yagona obrazdan o'sib chiqsa, omonimiyada tashqi shakl o'xshash bo'lsa-da, obrazli-motivatsion asoslar mutlaqo mustaqil bo'ladi. Shu bois polisemiya va omonimiyani farqlashda semantik zanjir hamda obrazli motivatsiya asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, har ikki tilda semantik hodisalarning umumiy mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, ularning obrazli realizatsiyasi, semantik intensivligi va kontekstual faollashuvi har bir tilning o'ziga xos frazeologik tizimi bilan belgilanadi. Demak, frazeologizmlarni faqat lug'aviy ma'no emas, balki semantik munosabatlar va kontekstual realizatsiya asosida o'rganish qiyosiy tadqiqotlar samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. Cowie A. P. (Ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
3. Fernando Ch. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
4. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili: darslik. – Toshkent: Universitet, 2006.
6. Cambridge Dictionary // Cambridge University Press & Assessment. https://dictionary.cambridge.org.
7. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili: darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.